

«TASDIQLAYMAN»
Termiz iqtisodiyot va
servis universiteti
rektor S.E. Absamatov
«09» «03» 2026 y.



«TASDIQLAYMAN»
O'zR FA Genetika va o'simliklar
eksperimental biologiyasi instituti
direktori q/x.f.d. prof.,
A.A.Narimanov
«09» «03» 2026 y.

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti hamda O'zbekiston Respublikasi
Fanlar Akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi
instituti o'rtasida 2026-2030 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot, o'quv
uslubiy va kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida**

SHARTNOMA

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori sur'atlarda rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmish biologiya, genetika, va qishloq xo'jaligi sohalari uchun bilimdon, malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlarining va ilmiy salohiyatli kadrlarning sifatini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ilmiy-tadqiqotlar olib borishda ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish belgilab berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti bilan O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti o'rtasida mutaxassislar yetishtirishda yaqindan hamkorlik joriy etilishi talab qilinadi va o'zaro quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

I. Ilmiy - tadqiqot ishlari

- 1.1. Ilmiy - tadqiqot ishlari olib borish, sohadagi axborot va ish tajribalarini o'zaro almashinish, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'yish.
- 1.2. Ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy moddiy - texnika bazasini rivojlantirishda o'zaro hamkorlik qilish.
- 1.3. Tayanch-doktoranlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistratura va bakalavr talabalarining fundamental, amaliy, laboratoriya ishlarini birgalikda olib borish uchun imkoniyatlar yaratish va ikki tomonlama rahbarlikni joriy etish.
- 1.4. Ilmiy - tadqiqot ishlari bo'yicha davlat dasturlarida o'zaro hamkorlikdagi loyihalar bilan qatnashish.

1.5. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchilarining filial mustaqil tadqiqotchilik institutiga qabul qilinishi va dissertatsiya himoyasi bo'yicha hamkorlik qilish.

1.6. Sohaga tegishli fanlardan ilmiy risola, monografiya, patent, ilmiy loyihalar va tavsiyalar yaratishga ikki tomon yetakchi olimlarini jalb etish.

II. O'quv-uslubiy ishlar

2.1. Tibbiyot va biologiya sohasida bakalavr, magistr va ordinatorlarni tayyorlash o'quv rejasidagi fanlardan o'quv dasturlari, sillabuslar, ma'ruza matnlari, o'quv va ilmiy adabiyotlarini yaratish va nashr etish.

2.1.2. Tarmoq korxonalarida talablariga muvofiq, yangi mutaxassisliklar bo'yicha yosh kadrlar tayyorlashda uzviy hamkorlik qilish.

2.3. Hozirgi kun talablariga mos tarzda yangi o'quv adabiyotlar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni birgalikda tayyorlash va chop qilish.

2.4. Bakalavrlarni malakaviy bitiruv ishlari va magistrning dissertatsiyalariga rahbarlik qilish, ordinatorlarga rahbarlik qilish hamda o'quv mashg'ulotlarni olib borish uchun yetakchi xodimlarni keng jalb etish.

2.5. Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida Termiz iqtisodiyot va servis universiteti biologiya, farmatsiya, davolash ishi, pediatriya ishi, stomatologiya ta'lim yo'nalishlari bo'yicha maxsus jihozlangan laboratoriyalarida sohaning yetuk mutaxassislari ishtirokida qisqa muddatli o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish.

2.6. O'quv mashg'ulotlarini yanada sifatli va samarali tashkil etish hamda o'tkazishda ikki tomon o'quv adabiyotlari va ularni elektron versiyalaridan foydalanish.

2.7. Termiz iqtisodiyot va servis universitetining mustaqil tadqiqotchilari, doktorantlari, magistrantlari va iqtidorli talabalarining O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy laboratoriyalaridan foydalanish.

III. Umumiy qoidalar

3.1. Ushbu hamkorlik shartnomasini amalga oshirish tomonlarning kelishilgan ish rejasi asosida olib boriladi. Hamkorlik jarayonida ishlarni tashkil etish rejalarini tomonlar roziligi bilan tegishli tarzda o'zgartirilishi mumkin.

3.2. Bajarilgan ishlar, olingan natijalar va tomonlarni qiziqtiruvchi boshqa ilmiy - texnik yangiliklar birgalikda tahlil qilinadi.


3.3. Hamkorlik qiluvchi tomonlar birgalikda bajarilgan ishlar asosida olingan natijalarni, ma'lumot va hisobotlarni boshqa tashkilotlarga tomonlarning roziligi, hamda ruxsatisiz berib yubormaslikni o'z zimmalariga oladilar.

3.4. Shartnomaning amal qilish muddati 2026 yilning 10-yanvardan 2030 yilning 31-dekabrigacha qilib belgilandi.

3.5. Shartnomaga amal qilish muddatini o'zgartirish yoki bandlariga tegishli qo'shimchalar kiritish ikki tomonning o'zaro roziligi bilan amalga oshiriladi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektori

 S.Ch.Eshkaraev


190111 Termiz shahri
"Yulduz" mahallasi, Ibn Sino
ko'chasi 38-B uy.

E-mail: university@tues.uz

+998 55 452 77 77

O'zR FA Genetika va o'simliklar
eksperimental biologiyasi instituti
direktorining ilmiy

ishlar bo'yicha o'rinbosari

 X. S. To'raqulov

111208, Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Yuqori-Yuz ko'chasi, 266-uy.

E-mail: igebr@academy.uz

+998-(71) 264 22 23

+998-(71) 264 23 90